



## Gidromtliorativ tizimlarda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish

MAVZU  
01

### Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning umumiyl tushunchalari



Газиева Раъно  
Тешабаевна




Texnologik jarayonlar va ishlisb  
chiqarishni avtomatlashtirish va  
boshqarish kafedrasasi professori  
e-mail:ranogazieva1960@gmail.com



ТЖИЧАВ

## **РЕЖА:**

- 1.2017-2021 йилларга мўлжалланган мамлакатимизни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича ҳаракат стратегияси дастурининг мазмун-моҳияти.  
ОТМ битирувчиларининг вазифалари**
- 2.Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш тизимларидаги асосий тушунчалар.**
- 3.Замонавий сув хўжалиги ишлаб чиқариши объектларининг автоматлаштириш обьекти сифатидаги тавсифи.**
- 4.Технологик бошқарув обьектларининг динамик хусусиятлари.**



## **7, 8 semestr**

<b>Ma'ruza</b>	<b>72</b>
<b>Amaliy</b>	<b>48</b>
<b>Tajriba</b>	<b>48</b>
<b>Mustaqil ish</b>	<b>120</b>
<b>Jami</b>	<b>288</b>

**Курс иши**

## **Foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati**

- 1.N.R.Yusupbekov va boshq.Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish.T.O`qituvchi 2011y.
- 2.Gazieva R.T. Avtomatika asoslari va ishlab chiqqarishni avtomatlashtirish T.,TIMI, 2010, 2014, 2017
- 3..N.R. Yusufbekov va boshq. Avtomatika va ishlab chiqarish jarayonlarni avtomatlashtirilish. 1993.
- 4.Gazieva R.T.Suv xo`jaligidagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish. - Toshkent.: Talqin, 2007.
- 5.Gazieva R.T., Voxidov A.X. va boshqalar. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish. - Toshkent.: Bilim, 2004.
- 6.Бородин И.Ф., Недилько Н.И. Автоматизация технологических процессов. Москва.: Колос, 1988.
7. Ганкин М.З.Комплексная автоматизация и АСУТП водохозяйственных систем. М. Агропромиздат 1991 г.
- 8 Попкович Г.С., Гордеев М. А. Автоматизация систем вода снабжения и водоотведения. - Москва.: Высшая школа, 1986.
- 9 Бородин И.Ф. Автоматизация технологических процессов и автоматических систем управления.- Москва.: Агропромиздат, 2006.
- 10 [www.informika.ru](http://www.informika.ru) – Информика-ГосНИИ информационных технологий.
11. [www.iae.nsk.su](http://www.iae.nsk.su)- Институт автоматики и электрометрии СО РАН
- 12.<http://kunegin.narod.ru> – Информационные и коммуникационные технологии.

**«Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning umumiy tushunchalari» tematik ma’ruzasida o`qitish texnologiyasi**

<b>Nº 1 Mavzu</b> 2 soat.	Ta’lim oluvchilar soni:65 kishdann oshmasligi lozim.
<b>Mavzu</b>	<b>Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning umumiy tushunchalari</b>
<b>Ma’ruza rejasi</b> <i>(infirmsations ma’ruza)</i>	<p><b>1. 2017-2021 yillarga mo`ljallangan mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakat strategiyasi dasturining mazmun-mohiyati.</b></p> <p><b>OTM bitiruvchilarining vazifalari</b></p> <p><b>2.Zamonaviy suv xo`jaligi ishlab chiqarishi ob'ektlarining avtomatlashtirish ob'ekti sifatidagi tavsifi</b></p> <p><b>3.Texnologik boshqaruv ob'ektlarining dinamik xususiyatlari</b></p> <p><b>4. Avtomatlashtirish tizimlarining turlari. Texnologik jarayonlarni qisman, kompleks va to`lik avtomatlashtirish</b></p>
<b>Asosiy tushuncha va atamalar</b>	<p>Ishlab chiqarish jarayonlari, ularni avtomatlashtirish vositalari, TJA, ABT, avtomatik nazorat, avtomatik rostlash, avtomatik boshqarish tizimlari xaqida tushuncha</p> <p>Ishlab chiqarish jarayonlari, ularni avtomatlashtirish vositalari, TJA, ABT, avtomatik nazorat, avtomatik rostlash, avtomatik boshqarish tizimlari haqida tushuncha</p>
<b>O`quv mashg`ulotining maqsadi</b>	Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari haqida umumiy tasavvurlarini shakllantirish

**Pedagogik vazifalari:**

- **Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari» tushunchasini ochib berish;**
- **Avtomatlashtirish tizimlari haqida tassavvur qilish;**
- **Avtomatlashtirish sxemalariga izoh berish;**
- **Avtomatlashtirish tizimlarining turlarini va ularni qo'llanishini tushuntirib berish.**

**O`quv faoliyat natijalari:**

- «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari» ushunchasiga izohlik kiritadilar;
- Avtomatlashtirish tizimlarining turlari haqida tushuntiradilar;
- Asosiy sxemalarni sanab va ularga izoh beradilar;  
Ma'ruzalar matni, mavzu bo'yicha tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, kompyuter texnologiyalari


<b><i>Ta'lim berish vositalari</i></b>	Ma'ruzalar matni, mavzu bo`yicha tarqatma materiallar, grafik organayzerlar, kompyuter texnologiyalari
<b><i>Ta'lim berish usullari va shakllari</i></b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruza, blits-so`rov, insert texnikasi;</li> <li>• Frontal ish, guruxlarda ishlash</li> </ul>
<b><i>Ta'lim sharoitlari</i></b>	Guruhdagi ishlarni tashkillashtirish uchun muvofiqlashgan texnik uskunalar bilan jihozlangan auditoriya
<b><i>Talabalarning berilgan o`quv mashqulotlari uchun kerakli bilim va ta'lim mahoratlari ro`yxati.</i></b>	Texnologik jarayonlar va ularni o`ziga xos xususiyatlarini, vazifalari va hisoblash usullarini bilish.

**XXI asr – bilim va intellektual tafakkur asri” degan fikr bejiz aytilmagan.** Bugungi kunda “Eng ko‘p talab qilinadigan va o‘zini eng ko‘p oqlaydigan sarmoya – bu inson intellektual kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoyadir”. Rivojlangan davlatlarda intellektual salohiyatga bir dollar sarflansa – yuz dollar bo‘lib qaytmoqda. Ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘ o‘rnini to‘ldirish boshlang‘ich ta’limga ega bo‘lgan ishchilar tomonidan 16,7 yilda qoplansa, o‘rta ma’lumotga ega ishchilarda 3,6 yilda va oliy ma’lumotlilarda ikki yilda, magistratura va doktorliklarda bir yilda qoplanar ekan.



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
- O‘zbekiston Respublikasini yanada  
rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar  
starategiyasi to‘g‘risidagi 2017 yil 7 fevralda  
imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga  
joriy etish bo‘yicha qonuniy tamoyil va  
mexanizmlar tasdiqlangan. Xususan bu yerda  
oliy ta’lim tizimi sifatini oshirish maqsadida  
quyidagilar keltirilgan:**

**Respublikada ta’lim va fan sohasida  
olib borilayotgan islohotlar avvalambor  
biror strategik maqsadga yo‘naltirilgan  
bo‘lishi zarur. Bu borada ushbu sohada  
bugungi kunda dunyoning rivojlangan va  
yetakchi rivojlanayotgan mamlakatlarida  
joriy etilayotgan “Bilimlar uchburchagi”  
modelini (knowledge triangle) tashkil  
etishga qaratilishi zarur:**



**Bu o‘z navbatida quyidagilarga  
ta’sir qiladi:**


- ta’lim sifatini oshishiga
- innovatsion ishlab chiqarish  
jarayonining jadallashuviga
- mehnat bozorining  
muvozanatlashuviga va h.k.

Suv resurslarini boshqarish va suv xo‘jaligi ob’ektlaridan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini ta’minlash, suv xo‘jaligini boshqarish sohasida bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ushbu sohada ilm-fanni rivojlantirish maqsadida **O‘zR Prezidentining 2019 yil 9 oktyabrdagi PQ-4486-son qarorida** 2022 yil oxirigacha O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi rahbariyati faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari va samaradorligining muhim ko‘rsatkichlari belgilangan:



- suv xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish, ilmiy ishlanmalar natijalarini, suv xo‘jaligini boshqarish va suv xo‘jaligi ob’ektlaridan foydalanishning ilg‘or usullarini amaliyotga faol joriy etish;
- suv xo‘jaligi ob’ektlarini boshqarish va ulardan foydalanish jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga 300 ta suv xo‘jaligi inshooti va gidrouzelda suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish.

O‘zR Prezidentining - O‘zbekiston  
Respublikasini yanada rivojlantirish  
bo‘yicha Harakatlar strategiyasi  
asosida suv xujaligida “ Texnologik  
jarayonlar va ishlab chiqarishni  
avtomatlashtirish va boshqarish”  
yunalishi buyicha yuqori malakali  
raqobatdosh kadrlarni tayyorlashda  
**2020-21 o`quv yilida** ушбу бакалавриат  
ва магистратура мутахассислигига  
талабалар укишларини давом  
эттиряптилар :



**5311000-** “Технологик жараён ва  
ишлаб чиқаришни автоматлаштириш  
ва бошқариш” (сув хўжалигида)

**5330200-** “Ахборот тизимлари ва  
технологиялари” (кишлок ва сув  
хўжалигида)

**5АЗ11001** - “Технологик жараён ва  
ишлаб чиқаришни автоматлаштириш  
”

Suv xo'jaligini avtomatlashtirish asosan sanoatdagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishdagi tajribalarga asoslanadi. Shu bilan birga suv xo'jaligidagi gidrotexnik inshootlari, nasos stansiyalari, suvni xisobga olish kabi sohalar o'zining shunday maxsus xususiyatlariga egaki, bu xolda tanlangan texnik vositalar va avtomatlashtirish usullari ma'lum texnologik talablarga javob berishi kerak. Suv xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayonlari murakkab axborot almashinuvi va jarayonlariga ega bo'lib, ular turli ko'rinishlarda berilishi mumkin. Bu esa suv xo'jaligi sohasida qo'llanuvchi mashina va uskunalarining maxsus ish rejimlariga mos tushmay qolishi, oqim liniyalardagi ishlab chiqarish jarayonlarini to'xtab qolishi, suv xo'jalik mashinalarining ish rejimlari bir-biriga mos tushmay qolishiga olib kelishi mumkin.




Suv xo'jaligida qo'llanuvchi qurilma va uskunalarining ko'pchiligidagi xos bo'lgan xususiyatlardan biri ularning tashqi muhit bilan boqliq holda ochiq havoda ishlashidir: namlik va haroratni keng maydonda o'zgarishi, turli aralashmalar, chang, qum, agressiv gazlar hamda sezilarli tebranishlarning mavjudligi. Suv xo'jaligida sanoatdan farqli ravishda yuqoridaq talablardan kelib chiqib avtomatlashtirish vositalari tashqi ta'sirlarga chidamli, parametrlarini keng diapazonda o'zgaruvchi qilib ishlanishi zarur.

Bu esa loyihalashtirilayotgan ob'ektdagi texnik vositalarning ishdan chiqishini kamaytirish, yuqori aniqlikda ishlashini ta'minlash imkoniyatini beradi.





**TIIAME**  
Tajik Institute of Education and  
Agricultural Mechanization Engineers



**Gidromeliorativ tizimlari ularning farqiga qaramay, umumiyligida xususiyatlarga ega bo'lib bir xil tipli avtomatlashtirish obektlari xisoblanadi. Ularning quyidagi umumiyligida xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:**

- umumiyligida maqsad bu tabiiy namlikni tarqatishdir.
- bir xil tarzdagi suv tarkatgich transport vositalari;
- bir xil turdagilarda rostlovchi qurilmalar va qurilmalarning qismlari (odatda har qanday tizim tarkibida suv tarmoqlarida joylashtirilgan turli boshqaruvchi gidrotexnika inshoatlari va gidromexanika uskunalarini mavjud)
- tizimda ko'p sonli boshqaruv va nazorat ob'ektlari mavjud, ob'ektlar turli joylarda joylashgan (bosh inshoatlar, platinalar, suv tarqatish bo'limlari va boshqalar);
- suvni jo'natish jarayoni to'lqinli tavsifga va katta kechikish vaqtiga ega (shuning uchun notekis suv taminoti mavjud bo'lsa, bu holda suv tarmoqida zaxira hajmlarga ega bo'lish va doimiy ravishda boshqarish uskunalariga ega bo'lish lozim)
- aksariyat boshqaruv obektlari ochiq joylar bo'lib, atmosfera ta'siriga ko'ra mavsumiy ish tavsifiga ega: bundan ko'rinishdiki, qurilma va uskunalar xamda boshqaruvi yuqori ishonchlilikka ega bo'lishi zarur.
- ochiq kanallar yoki yer usti lotoklari ko'rinishidagi ichki xo'jalik tarmoqi qo'shimcha si'imga ega bo'lmagani uchun agar istemolchilar tarqatilgan o'z vaqtida ishlata olmasalar, suv to'qish tarmoqiga yuboriladi (bu holda boshqaruv qurilmasi suforiladigan yerlarga suvni haydash va ishlash jarayonini bir - biri bilan bo'lanishini taminlab berishi kerak).

# **Zamonaviy suv xo'jaligi ishlab chiqarishi ob'ektlarining avtomatlashtirish ob'ekti sifatidagi tavsifi**

Ma'lumki, har qanday avtomatik boshqaruv tizimida boshqaruv ob'ekti va boshqaruv qurilmasi o'zaro ta'sirga ega. Shuning uchun boshqaruv uskunasining sifati boshqaruv ob'ekti bilan birga ishlagan vaqtida ko'rindi. Avtomatik boshqaruv tizimi tekshirish yoki ishlab chiqishda avval gidromelarativ tizimlarining avtomatlashtirish ob'ekti sifatidagi xususiyatlari, ya'ni jarayonning mahsus ko'rsatkichlari, statik va dinamik tavsiflari, texnologik jarayonlarning tarkibiy qismlari hisobiga olinadi.




**Gidromeliorativ tizimlarni avtomatlashtirishda boshqaruv jarayonida tizimning operativ xizmat tarmoqi to'liq yoki qisman inson ishtirokisiz amalga oshirilishi tushuniladi. Bundan tashqari, tizimni ishlab chiqarish faoliyatining barcha turlari (iqtisodiyot, xo'jalik va h.k) avtomatlashtirishi ko'zda tutiladi.**



**Shunday qilib barcha turdagি  
gidromeliorativ tizimlari ishlab chiqarish  
jarayonlari, ish tartiblari, konstruktiv  
bajarilishining turli xil ko‘rinishidan  
qat’iy nazar, ular juda ko‘p o‘xshash  
xususiyatlarini xisobga olgan xolda bir  
turkumlagi avtomatlashtirish ob’ekti  
sifatida ko‘rilishi mumkin**


# Avtomatlashtirish tizimlarining turlari



***ABS lari asosan ikki xil ko`rinishda ega:*** birinchi turga boshqaruvchi va boshqariluvchi qismlar o`zaro ketma-ket bog`langan va bir-biriga ochiq zanjir bo`yicha o`zaro ta'sir ko`rsatadigan avtomatik boshqarish tizimlari kiradi.


***Ochiq zanjirli ABS larida*** ob'ektlarning ishga tushishi, ishlashi va to`xtashi ma'lum vaqt (davr) oralig`ida oldindan berilgan programmasi asosan o'tadi, ob'ektdagi texnologik jarayonlar undagi miqdor va sifat o`zgarishlariga bogliq bo'lmaydi.

Bunday tizimlarga misol sifatida asinxron elektr yuritmaning ishga tushishi, ma'lum vaqt oralig`ida boshqarilmaydigan rejimda ishlashi (o`z holicha) va ish davri tamom bo`lgach tutashdan iborat programmaga muvofiq ishlashini ko`rsatish mumkin. Avtomatik manipulyatorlar va texnologik potok liniyalar ham oldindan belgilangan programmaga muvofiq ishlaydi



*1-rasm.Boshqarishning  
ochiq zanjirli tizimi :*

*a- tizimning prinsipial  
sxemasi; b-tizimning  
funktional sxemasi:  
KT – boshqaruvchi rele  
kontakti;  
IM- ijrochi mexanizm  
(kontaktor);  
BO- boshqarish ob'ekti.*



*a- tizimning prinsipial sxemasi:*

*BO- boshqarish ob'ekti;*

*IE - ijrochi element (kontaktor);*

*KT- boshqaruvchi rele kontakti;*

*b- tizimning funksional sxemasi;*

*v- tizimning ishlash davri:*

*t1-ishga tushish vaqt;*

*t1- t2-normal ishlash davri;*

*t2- ishdan to`xtash vaqt.*


*Vaqt bo`yicha programmalangan, yuritish (t1),  
ishlash (t1- t2) va tuxtash*

*(t2) vaqtি berilgan davr ichida o`tadigan asinxron  
elektr yuritmani avtomatik boshqarish  
sistemasining funksional sxemasi(b) rasmda  
ko`rsatilgan*

Vaqt bo`yicha programmalangan, yuritish ( $t_1$ ), ishlash ( $t_1 - t_2$ ) va to`xtash ( $t_2$ ) vaqtি berilgan davr ichida o`tadigan asinxron elektr yuritmani avtomatik boshqarish sistemasining funksional sxemasi(b) rasmda ko`rsatilgan. Bu elektr yuritma quyidagicha boshqariladi:

- vaqt ichida boshqaruvchi rele ishga tushadi yning kontakti KT ulanadi. Kontaktor KT ning el. magnit galtagidan (1) tok utib unda magnit maydoni xosil buladi. Magnit maydon kuchi  $F_m$  prujina Pr kuchi  $F_{2\text{pr}}$  ni yengib  $F_m > F_{\text{pr}}$  bo`lganda kuzgaluvchan temir o`zak yakor 2 ni qo`zgalmas temir uzak 3 tortib oladi. Shunda yakor bilan mexanik boglangan kontaktor kontaktorlari  $K_1$ ,  $K_2$ ,  $K_3$  asinxron elektr yuritma elektr manbaiga ulaydi. Asinxron elektr yuritma ishga tushadi va  $t_2$  vaqtgacha ishlab turadi. Oradan  $t_2$  vaqt o`tgach boshqarish rele (vaqt relesi) ning kontakti uziladi (RB), kontaktorgaltagi 1. dan o`tmaydi, undagi magnit maydoni va Pr kontaktor kontaktlarini ( $K_1$ ,  $K_2$ ,  $K_3$ ) uzib, asinxron yuritmani davriy grafik asosida ishdan tuxtatadi. (v).

Tizimning funksional sxemasiga muvofiq, boshqaruvchi rele RB ijro etuvchi element-kontaktorga ta`sir ko`rsatadi, ijro etuvchi element IM o`z navbatida ob'ektga ta`sir etib, uni berilgan davriy grafikka (programmaga) muvofiq ishga tushiradi va to`xtatadi.



*2-rasm.Boshqarishning  
yopiq zanjirli informatsion  
tizimlari*

1- bug' qozoni; 2-qalqovich ;  
3-naycha , 4- richag  
( Pozunov regulyatori)

Bunday tizimlarda ob'ektni ishga tushirish, va ma'lum programma bo'yicha boshqarishdan tashkari, tizimning ishlash protsessi davomida ob'ektning sifat ko'rsatkichlari-texnologik parametrlari rostlash bilan bogliq bo'lgan boshqarish jarayoni ham bo'ladi. Misol tarikasida bug' qozonida yuqori bosimli bug' ishlab chiqarish jarayonida undagi texnologik parametr-suv sathi balandligi o'zgarmas va berilgan balandlik  $N_b$  ga teng bo'lishini ta'minlab turish talab qilinadi. (2-rasm. ) 1- qalqovich 2- richag, 3- naycha. Bu funksiyani qalqovich 1, qalqovichni suv sathida o'rnatish uchun kerak bo'ladigan ayrisimon dasta va richag 2 dan iborat bo'lgan Pozunov regulyatori bajaradi.

Qozonga manbadan keladigan suv miqdori  $Q_k$  qozonga yuqori bosimli bug`ga aylanib chiqib ketadigan suv miqdori  $Q_r$  ga teng ( $Q_k - Q_{ch}$ ) bo`lganda regulyator richiga 2 gorizontal holati bo`ladi. Hamma boshqa hollarda, masalan suv sarfi kamayganda  $Q_k > Q_{ch}$  qalqovich suv sathi balandligining ortishi-  $\Delta H(t) - H_b - N(t)$  ga muvofiq ravishda ob'ektni rostlash organi- RO ga ta'sir qilib ob'ektga keluvchi suv miqdorini kamaytiradi, aksincha, suv (bug`) sarfi ortganda  $Q_k > Q_{ch}$  qalqovich pastga suriladi, regulyator suv sathi balandligining kamayishi  $\Delta H(t) - H_b - N(t)$  ga muvofiq ob'ektni rostlash organiga- RO ga ta'sir qilib, ob'ektga keluvchi suv miqdorini oshiradi. Shu tarzda ob'ektdagi suv sathi balandligini rostlash protsessini uzluksiz davom ettirib turadi. Ob'ekt informatsiya  $y_o \Delta N$  ga muvofiq avtomatik boshqariladigan rejimda ishlaydi.

## *Nazorat savollari*

- 1. 2020-21 o‘quv yilida Harakatlar strategiyasida ko`rsatilgan tashabbuslar doirasida OTMda qanday o‘zgarishlar kuzatildi?*
- 2. Avtomatlashтирish tizimларining тurlarini va ularni qo‘llanishini tushuntirib bering.*
- 3. OTM bitiruvchisi sifatida soha bo`yicha malakaviy amaliyotda ishlab chiqarish ob’ektlarida qanday kamchiliklarni kuzatdingiz?*
- 4. ABT, ART, ANT lari xaqida tushuncha bering.*
- 5. Ochiq va berk zanjirli tizimlarning xususiyatlari*
- 6. GM tizimларining boshqaruv ob’ekti sifatida qanday xususiyatlarini ko`rsatish mumkin.*
- 7. Topshriq: 2-rasmdagi boshqarishning yopiq zanjirli informatsion tizimi uchun avtomatik boshqarish sistemasining funksional sxemasini tuzung.*



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



+ 998 71 237 19 98



[ranogazieva1960@gmail.com](mailto:ranogazieva1960@gmail.com)